



#### IV. INVESTITSİYALAR VA QURILISH

2024-yilning yanvar-iyun oylarida Samarqand viloyatining asosiy kapitalini ko'paytirishga 15 274,6 mlrd. so'm miqdorida investitsiyalar kiritilib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan o'sish sur'ati 104,2 % ni tashkil qildi, shundan xorijiy investitsiyalar va kreditlar 8 944,7 mlrd. so'mni tashkil etdi.

##### Moliyalashtirish manbalari bo'yicha asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning taqsimlanishi


	<i>mlrd. so'm</i>	<i>o'sish sur'ati, % da</i>	<i>umumiy hajmga nisbatan % da</i>
<b>Asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar</b>	<b>15 274,6</b>	<b>104,2</b>	<b>100,0</b>
<i>shu jumladan:</i>			
<b>Markazlashgan investitsiyalar:</b>	<b>1 617,1</b>	<b>105,7</b>	<b>10,6</b>
Byudjet mablag'lari	944,2	102,9	6,2
Suv ta'minoti va kanalizatsiya tizimlarini rivojlantirish jamg'armasi mablag'lari	89,9	137,6	0,6
Tiklanish va taraqqiyot jamg'armasi	89,8	8,7 m.	0,6
O'zbekiston Respublikasi kafolati ostida bo'lgan chet el kreditlari	493,2	91,9	3,2
<b>Markazlashmagan investitsiyalar</b>	<b>13 657,5</b>	<b>104,0</b>	<b>89,4</b>
Korxonalarining mablag'lari			
(mahalliy byudjet mablag'larini qo'shgan holda)	4 260,5	82,5	27,9
Aholi mablag'lari	535,4	86,6	3,5
To'g'ridan-to'g'ri va boshqa xorijiy investitsiya va kreditlar	8 451,5	143,1	55,3
Tijorat bank kreditlari va boshqa qarz mablag'lari	410,2	28,4	2,7

Asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar



Markazlashmagan  
moliyalashtirish manbalari  
hisobidan investitsiyalar,  
tarkibi % da

O'tgan yilning mos  
davriga nisbatan,  
% da



2024-yilning yanvar-iyun oylarida asosiy kapitalga kiritilgan  
investitsiyalarning texnologik tarkibi

	<i>jami</i>	<i>davlat</i>	<i>nodavlat</i>
<b>Jami, mlrd. so'm</b>	<b>15 274,6</b>	<b>1 963,3</b>	<b>13 311,3</b>

2024-yilning yanvar-iyun oylarida markazlashtirilgan moliyalashtirish manbalariga 1 617,1 mlrd. so'mlik investitsiya mablag'lari kiritilib, bu ko'rsatkich jami investitsiyalarning 10,6 % ni tashkil etdi, bu o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish surati 105,7 % ni tashkil etgan. Hisobot davrida markazlashtirilmagan moliyalashtirish manbalari hisobidan 13 657,5 mlrd. so'mlik investitsiyalar o'zlashtirildi (jamiga nisbatan ulushi 89,4 %) va o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 104,0 % ni tashkil etdi.

Korxonalar va tashkilotlarning o'z mablag'lari hisobiga 4 260,5 mlrd. so'm asosiy kapitalga investitsiyalar o'zlashtirildi yoki jami investitsiyalarning 27,9 % o'zlashtirildi. Aholining mablag'lari hisobidan 535,4 mlrd. so'mlik investitsiyalar o'zlashtirilib, jami investitsiyalar hajmining 3,5 % ni tashkil etdi.


Hisobot davrida O‘zbekiston Respublikasi Hukumati kafolati ostida 493,2 mlrd. so‘mlik xorijiy kreditlar ajratildi, bu esa o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 91,9 % ni yoki jami investitsiyalarning ulushi 3,2 % ni tashkil etgan.

Shu bilan birga, bank kreditlari va boshqa qarz mablag‘lari hisobidan 410,2 mlrd. so‘mlik mablag‘lar kiritildi (asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar umumiy hajmining 2,7 %), bu o‘shish sur‘ati 28,4 % ni tashkil etdi, to‘g‘ridan-to‘g‘ri va boshqa xorijiy investitsiyalar va kreditlar hisobidan 8 451,5 mlrd. so‘m (ulushi 55,3 %) va o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 143,1 % ni tashkil etdi, Respublika byudjeti 944,2 mlrd. so‘m (ulushi 6,2 %) ushish sur‘ati 102,9 % ni tashkil qildi. Suv ta‘minoti tizimlarini rivojlantirish jamg‘armasi hisobidan 89,9 mlrd. so‘m, (ulushi 0,6 %) va o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 137,6 % ni tashkil etdi.


### Iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar va kreditlar

Hisobot davrida asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning asosiy qismi qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligiga 1 687,5 mlrd. so‘m (152,3 %), shundan tog‘–kon sanoatiga 373,2 mlrd. so‘m (6,1 m.), ishlab chiqarish sanoatiga 4 877,4 mlrd. so‘m (93,6 %), elektr energiyasi, gaz, bug‘ va konditsiyalangan havo 387,5 mlrd. so‘m (35,5 %), suv bilan ta‘minlash, kanalizatsiya, chiqindilarni yig‘ish va qayta ishlashga 104,2 mlrd. so‘m (38,4 %), qurilishga 1 551,9 mlrd. so‘m (2,5 m.), ulgurji va chakana savdo, motorli transport vositalar va mototsikllarni ta‘mirlashga 353,6 (62,9 %) mlrd. so‘m, shundan tashish va saqlashga 3 550,1 mlrd. so‘m (2,5 m.), axborot va aloqaga 117,0 mlrd. so‘m (176,2 %), moliya va sug‘urta faoliyatiga 18,6 mlrd. so‘m (24,0 %), professional, ilmiy va texnik faoliyatga 236,5 mlrd. so‘m (71,1 %), ta‘lim yo‘nalishiga 297,0 mlrd. so‘m (83,6 %), sog‘liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko‘rsatish 23,6 mlrd. so‘m (2,0 m.), jami faoliyat turlaridan tashqari: turar joy qurilishiga investitsiyalarga 149,3 mlrd. so‘m (108,0 %) boshqa faoliyat turlariga 1 547,2 mlrd. so‘m (106,2 %) to‘g‘ri keldi.


**Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha asosiy kapitalga  
kiritilgan investitsiyalar va kreditlar**  
*(umumiy hajmga nisbatan % da)*



2024-yil yanvar-iyun oylarida asosiy kapitalga kiritilgan  
investitsiyalarning moliyalashtirish manbalari bo'yicha tarkibi



**Moliyalashtirish manbalari bo'yicha  
asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar,  
(umumiy hajmga nisbatan % da)**



Jami o'zlashtirilgan investitsiyalarning 55,3 % to'g'ridan-to'g'ri va boshqa xorijiy investitsiyalar va kreditlar hisobidan o'zlashtirildi, shu bilan birga, korxonalar va tashkilotlarning o'z mablag'lari hisobidan 27,9 %, aholi mablag'lari hisobidan, bu esa jami investitsiyalarning 3,5 % ni tashkil etadi.

### 2024-yilning yanvar-iyun oylarida moliyalashtirish manbalari bo'yicha asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar

	<i>Kiritilgan investitsiyalar, mlrd. so'm</i>	<i>O'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati, % da</i>	<i>Umumiy hajmdagi ulushi, % da</i>
<b>Barcha moliyalashtirish manbalari hisobidan</b>	<b>15 274,6</b>	<b>104,2</b>	<b>100,0</b>
Respublika budjeti	944,2	102,9	6,2
Suv ta'minoti tizimlarini rivojlantirish jamg'armasi	89,9	137,6	0,6
O'zbekiston Respublikasi tomonidan kafolatlangan chet el kreditlari	493,2	91,9	3,2
Tiklanish va taraqqiyot jamg'armasi	89,8	8,7 m.	0,6
Korxonalar mablag'lari	4 260,5	82,5	27,9
Tijorat banklari kreditlari va boshqa qarz mablag'lari	410,2	28,4	2,7
To'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar va kreditlar	8 451,5	143,1	55,3
Aholi mablag'lari	535,4	86,6	3,5

Moliyalashtirish manbalari bo'yicha asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning eng yuqori o'sish sur'atlari To'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar va kreditlar 8 451,5 mlrd. sum bo'lib, o'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati 143,1 % ni tashkil etgan.

**Shahar va tumanlar kesimida asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar, mlrd. so'm**

	<i>2023-y. yanvar- iyun</i>	<i>2024-y. yanvar- iyun</i>	<i>o'tgan yilning mos davriga o'sish sur'ati, % da</i>	<i>jami investitsiyalardan to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar hajmi, ming AQSh doll.</i>
--	-------------------------------------	-------------------------------------	--	--

<b>Viloyat bo'yicha</b>	<b>13 775,1</b>	<b>15 274,6</b>	<b>104,2</b>	<b>201 061,1</b>
Samarqand sh.	3 683,4	7 049,3	180,3	20 515,3
Kattaqo'rg'on sh.	130,2	122,4	88,2	4 002,7
Oqdaryo	255,5	307,7	113,0	5 714,5
Bulung'ur	328,0	390,1	111,4	7 881,5
Jomboy	424,5	943,4	2,1 m.	48 046,2
Ishtixon	152,1	323,2	199,0	13 090,6
Kattaqo'rg'on	3 233,4	750,6	21,8	7 418,7
Qo'shrabot	286,1	445,5	146,0	8 700,4
Narpay	238,3	366,5	144,2	5 500,4
Payariq	320,7	761,4	2,2 m.	399,4
Pastdarg'om	1 285,8	869,8	63,4	45 068,8
Paxtachi	194,2	318,3	153,6	2 000,1
Samarqand	1 863,8	1 059,4	53,4	9 382,3
Nurobod	479,5	719	140,5	18 163,0
Urgut	516,0	545,8	99,2	5 177,2
Toyloq	383,6	302,2	73,9	0,0

## Aholi jon boshiga kiritilgan investitsiyalar

(2024-yil yanvar-iyun oylarida)

	<i>Aholi jon boshiga investitsiyalar hajmi, ming soʻmda</i>	<i>Oʻsish surʻati, % da</i>
<b>Viloyat boʻyicha</b>	<b>3 612,0</b>	<b>102,0</b>
Samarqand sh.	11 990,6	176,3
Kattaqoʻrgʻon sh.	1 286,9	87,1
Oqdaryo	1 767,4	110,6
Bulungʻur	1 919,7	109,2
Jomboy	4 949,6	2,0 m.
Ishtixon	1 165,4	195,4
Kattaqoʻrgʻon	2 543,5	21,4
Qoʻshrabot	3 126,4	143,5
Narpay	1 605,2	141,9
Payariq	2 770,8	2,1 m.
Pastdargʻom	2 258,6	62,2
Paxtachi	2 083,4	151,8
Samarqand	3 862,4	52,3
Nurobod	4 405,8	138,2
Urgut	970,8	97,0
Toyloq	1 359,6	72,2

2024-yilning yanvar-iyun oylarida aholi jon boshiga hisoblangan asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar hajmi boʻyicha yuqori koʻrsatkichlar Samarqand shahri 11 990,6 ming soʻm, bu yerda ishlab chiqarish hajmlarini koʻpaytirishga oʻzlashtirilgan, Jomboy tumani 4 949,6 ming soʻm, bu yerda sement ishlab chiqarish majmuasini qurish oʻzlashtirilgan investitsiyalar bilan bogʻliq.

**2024-yilning yanvar-iyun oylarida moliyalashtirish manbalari bo'yicha  
asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar, mlrd. so'm**

	<i>Asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar jami, mlrd. so'm</i>	<i>shu jumladan moliyalashtirish manbalari bo'yicha:</i>				
		<i>respublika budjeti</i>	<i>korxonalar mablag'lari</i>	<i>aholi mablag'lari</i>	<i>xorijiy investitsiyalar va kreditlar</i>	<i>Xukumat kafolati ostidagi chet el kreditlari</i>
<b>Viloyat bo'yicha</b>	<b>15 274,6</b>	<b>944,2</b>	<b>4 260,4</b>	<b>535,4</b>	<b>8 944,7</b>	<b>495,5</b>
Samarqand sh.	7 049,3	705,7	1 221,8	58,5	4 921,6	465,1
Kattaqo'rg'on sh.	122,4	21,3	20,6	12,7	63,4	13,1
Oqdaryo	307,7	5,2	191,6	19,8	88,1	-
Bulung'ur	390,1	30,7	190,5	40,3	113,9	-
Jomboy	943,4	6,7	274,9	23,6	603,8	-
Ishtixon	323,2	11,3	57,7	30,8	189	-
Kattaqo'rg'on	750,6	30,2	563,2	25,3	93,2	-
Qo'shrabot	445,5	2,6	21,2	40,3	380,9	-
Narpay	366,5	40,5	51,0	28,6	237,4	-
Payariq	761,4	6,0	131,1	34,5	580,7	-
Pastdarg'om	869,8	4,7	85,0	42,7	580,6	-
Paxtachi	318,3	5,5	67,2	33,7	193,2	-
Samarqand	1 059,4	14,5	612,9	28,9	373,9	-
Nurobod	719	28,1	339,5	52,8	270,1	-
Urgut	545,8	20,0	291,3	40,6	159,5	-
Toyloq	302,2	11,2	140,9	22,3	95,3	-

davomi

	Asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar jami, mlrd. so‘m	shu jumladan moliyalashtirish manbalari bo‘yicha:		
		Suv ta‘minoti tizimlarini rivojlantirish jang‘armasi	Tiklanish va taraqqiyot jang‘armasi	tijorat banklari kreditlari va boshqa qarz mablag‘lari
<b>Viloyat bo‘yicha</b>	<b>15 274,6</b>	<b>89,9</b>	<b>89,8</b>	<b>410,2</b>
Samarqand sh.	7 049,3	-	82,4	59,1
Kattaqo‘rg‘on sh.	122,4	-	-	4,4
Oqdaryo	307,7	3,0	-	-
Bulung‘ur	390,1	9,9	-	4,7
Jomboy	943,4	5,9	-	28,6
Ishtixon	323,2	32,9	-	1,5
Kattaqo‘rg‘on	750,6	16,4	-	22,1
Qo‘shrabot	445,5	-	-	0,5
Narpay	366,5	4,8	-	4,2
Payariq	761,4	0,1	-	9,0
Pastdarg‘om	869,8	0,03	7,4	149,3
Paxtachi	318,3	0,03	-	18,8
Samarqand	1 059,4	-	-	29,3
Nurobod	719	5,5	-	23
Urgut	545,8	11,4	-	23,1
Toyloq	302,2	-	-	32,6


### Ijtimoiy soha obyektlarini qurish

2024-yilning yanvar-iyun oylarida umumiy maydoni 113,9 ming kv.m. bo‘lgan 1138 ta uy-joy qurilgan (2023-yilning yanvar-iyun oylariga nisbatan 100,6 %) shu jumladan, qishloq joylarda 108,3 ming kv.m, 1 106 ta uy-joy foydalanishga topshirildi.


Noishlab chiqarish sohasiga kiritilgan investitsiyalar hajmidan 149,3 mlrd. so‘mi yoki 3,2 % turar-joy qurilishida o‘zlashtirildi.

Umumta'lim maktablari va maktabgacha ta'lim muassasalari qurilishida 2,5 mlrd. so'm atrofida investitsiyalar o'zlashtirildi, bu noishlab chiqarish sohasiga yo'naltirilgan investitsiyalarning 0,01 foizini tashkil qiladi.

**Qurilish faoliyati.** 2024-yilning yanvar-iyun oylarida 5 083,7 mlrd. so'mlik qurilish ishlari bajarilib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 111,6 % ni tashkil etdi.




## Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlari (umumiy hajmga nisbatan % da)



Qurilish ishlari umumiy hajmining 32,0 % i binolar va inshootlarni qurishga, 64,2 % fuqoralik qurilishi ob'ektlarini qurish bo'yicha qurilishga 3,8 % ixtisoslashtirilgan qurilish ishlariga to'g'ri keldi. Shu jumladan, umumiy hajmdan 77,0 % yangi qurilish, rekonstruksiya va kengaytirish hamda texnik jihatdan qayta jihozlashga to'g'ri keladi.

## Mulkchilik shakllari bo'yicha qurilish tashkilotlarining o'z kuchlari bilan bajargan qurilish ishlari taqsimoti (umumiy hajmga nisbatan % da)




Davlat mulki



Nodavlat mulki



## Korxonalar turlari bo'yicha qurilish ishlari hajmi, mlrd.so'm



Jami qurilish ishlaridan yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari ulushi 15,2 % ni tashkil etib, ulushi -0,1 % ni punktga ko'mayish kuzatildi. Kichik korxonalar va mikrofirmalar hissasi 79,2 % ni tashkil etib, 1,1 % punktga kamaydi, norasmiy sektorning ulushi 5,6 % ni tashkil etdi.


**Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlari hajmi,**  
*(umumiy hajmga nisbatan % da)*



Jami qurilish ishlari hajmida yangi qurilish, rekonstruksiya, kengaytirish va texnik jihatdan qayta qurollantirish ishlari hajmi 3 916,5 mlrd. soʻmni (ulushi 77,0 %) tashkil etdi. Kapital, joriy taʼmirlash va boshqa pudrat ishlari hajmi esa 1 167,2 mlrd. soʻmni (ulushi 23,0 %) tashkil etdi.



**Qurilish ishlari turlari bo'yicha**  
*(jamiga nisbatan foiz hisobida)*




### 2024-yilning yanvar-iyun oylarida shahar va tumanlar bo'yicha qurilish ishlari hajmi, mlrd. so'm

	2023-yil	2024-yil	<i>o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati, % da</i>	<i>Umumiy hajmga nisbatan ulushi % da</i>
<b>Viloyat bo'yicha</b>	<b>4 706,1</b>	<b>5 083,7</b>	<b>106,2</b>	<b>100,0</b>
Samarqand sh.	1 731,1	1 937,8	110,2	38,1
Kattaqo'rg'on sh.	112,5	122,5	107,0	2,4
Oqdaryo	233,1	269,3	113,6	5,3
Bulung'ur	98,2	116,1	115,3	2,3
Jomboy	157,5	168,5	105,2	3,3
Ishtixon	121,7	126,5	101,8	2,5
Kattaqo'rg'on	329,9	295,7	88,3	5,8
Qo'shrabot	76,3	129,4	166,6	2,5
Narpay	63,3	65,4	100,4	1,3
Payariq	611,0	677,8	109,2	13,3
Pastdarg'om	237,9	382,5	158,0	7,5
Paxtachi	68,1	81,9	117,3	1,6
Samarqand	120,7	167,2	135,9	3,3
Nurobod	57,2	59,3	100,3	1,2
Urgut	117,7	135,0	112,2	2,7
Toyloq	569,9	348,8	60,2	6,9

2024-yilning yanvar-iyun oylarida viloyat bo'yicha qurilish ishlari hajmida Samarqand shahri 1 937,8 mlrd. so'm, Payariq 677,8 mlrd. so'm, Pastdarg'om 382,5 mlrd. so'm va Toyloq 348,8 mlrd. so'm, hajmli tumanlar yuqori ulushlarga ega.

2024-yilning yanvar-iyun oylarida  
qurilish ishlari hajmi va o‘shish sur‘atlari



Hisobot davrida bajarilgan qurilish ishlarining yuqori o‘shish sur‘ati Pastdarg‘om tumanida (o‘tgan yilning mos davriga nisbatan o‘shish sur‘ati 158,0 %), Bulung‘ur (115,3 %), Samarqand tumani (135,9 %) va Qo‘shrabot (166,6 %) tumanlarida kuzatildi.

2024-yilning yanvar-iyun oylarida aholi jon boshiga hisoblangan qurilish ishlari hajmi bo‘yicha yuqori ko‘rsatkichlar Samarqand shahri (3 296,1 ming so‘m, o‘shish sur‘ati 107,9 %), Oqdaryo tumani (1 546,7 ming so‘m yoki o‘tgan yilga nisbatan o‘shish sur‘ati 111,0 %), Bulung‘ur tumani (571,6 ming so‘m, o‘shish sur‘ati 113,6 %) hamda Toyloq tumani (1 568,9 ming so‘m, o‘shish sur‘ati 58,7 %) qayd etildi.



**Aholi jon boshiga qurilish ishlari**

*(2024-yil yanvar-iyun oylarida)*

	<i>Aholi jon boshiga qurilish ishlari hajmi, ming soʻmda</i>	<i>Oʻsish surʻati, % da</i>
<b>Viloyat boʻyicha</b>	<b>1 202,2</b>	<b>103,9</b>
Samarqand sh.	3 296,1	107,9
Kattaqoʻrgʻon sh.	1 288,6	105,6
Oqdaryo	1 546,7	111,0
Bulungʻur	571,6	113,6
Jomboy	884,3	102,6
Ishtixon	456,1	100,0
Kattaqoʻrgʻon	1 001,9	86,4
Qoʻshrabot	908,1	163,6
Narpay	286,3	99,8
Payariq	2 466,6	106,5
Pastdargʻom	993,3	154,6
Paxtachi	535,9	116,5
Samarqand	609,6	133,4
Nurobod	363,6	100,0
Urgut	240,1	110,0
Toyloq	1 568,9	58,7


**2024-yilning yanvar-iyun oylarida korxonalar turlari bo'yicha  
qurilish ishlari hajmi,**

	<b>Yirik korxonalar</b>	<b>Kichik korxonalar</b>	<b>Norasmiy sektor</b>
<b>Viloyat bo'yicha</b>	<b>771,4</b>	<b>4 026,9</b>	<b>285,4</b>
Samarqand sh.	84,3	1 810,4	43,1
Kattaqo'rg'on sh.	-	113,2	9,3
Oqdaryo	27,7	227,4	14,2
Bulung'ur	8,6	83,7	23,8
Jomboy	6,6	152,6	9,3
Ishtixon	4,3	105,8	16,4
Kattaqo'rg'on	6,6	281,9	7,2
Qo'shrabot	55,6	62	11,8
Narpay	2,7	44,6	18,1
Payariq	40,3	615,3	22,2
Pastdarg'om	197,3	163,4	21,8
Paxtachi	4,7	60,8	16,4
Samarqand	39,5	110,4	17,3
Nurobod	7,2	30,2	21,9
Urgut	11,8	103,6	19,6
Toyloq	274,2	61,6	13,0

Yirik korxonalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlarining yuqori ko'rsatkichlari Toyloq (jami qurilish ishlari hajmidagi ulushi 35,5 %), Pastdarg'om (ulushi 25,6 %), Samarqand shahri (ulushi 10,9 %) tumanlariga to'g'ri keladi.



## Shahar va tumanlar kesimida qurilish ishlari ulushi, (umumiy hajmga nisbatan % da)



Jami qurilish hajmidan eng yuqori ulushni Samarqand shahrida 38,1 % ni, Toyloq tumanida 6,9 % ni va Pastdarg'om tumanida 7,5 % ni va tashkil etdi.

Shuningdek, viloyat miqyosida qurilish ishlari hajmida eng past ulushlar Nurobod (1,2 %), Paxtachi (1,3 %) va Kattaqo'rg'on shahri (2,4 %) hissasiga to'g'ri keladi.